



RAUF PARFI LIRIKASIDA YULDUZ OBRAZI TAHLILI

Mahliyo Raximboyeva

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336594>

Rauf Parfi-zamonaviy sheʼriyat olamida oʻz mavqeyi va nomiga ega boʻlgan isteʼdodli buyuk ijodkor. Shoirning asarlarida zamon va jamiyat, vaqt va fursat, insoniylik va ahillik, qalb va koʻngil masalalari, dard va iztiroblari obrazlar, timsollar, lirik qahramonlar orqali ochib berilgan. Taniqli nazariyotchi olim Ilhom Gʻaniyev ijodkor haqida shunday yozadi: “Rauf Parfi Oʻzturk ijodi oʻzida Sharq va Gʻarb anʼanalarini goʻzal badiiy sintez qilgan hamda ulardagi umumbashariy gʻoyalar, falsafalar, tarixiy evrilishlar, dard va almlar, adolatsizlikka muhosasizlik bir millat qobigʻini yorib chiqa olgan”¹. Haqiqatdan ham, shoir lirikasida xuddi shu holatlarni kuzatamiz va payqaymiz.

Rauf Parfi lirikasining koʻpchilik qismini tabiat tasviriga bagʻishlangan sheʼrlari tashkil qiladi. Shoir goʻzal tabiat manzarsini tasvirlashda turli xil obrazlardan foydalangan. Jumladan, oy, quyosh, yomgʻir, shamol va qor kabi peyzajik timsollar aks etgan. Biz bu safar ijodkorimizning badiiy hamrohi, tunning erka va son-soanoqsiz farzandi boʻlmish yulduz timsolini tahlilga tortishga jazm qildik.

Yulduz-goʻzallik va baxtning ramzi. Ulugʻ Turkiston ezgu orzusi olis yulduzga qiyos qilingan baxtni intizorlik bilan kutadi. Chumki zamon notinch, insoniyat saodatni va hurlikni qoʻmsaydi. “Baxt singari olis yulduzlar goʻyo”-bu nima? Bu “olis yulduz”-baxt-millat va Turkiston ozodligi, hurriyat, ha, u 1963-yilda goʻyo ertakdek “olis yulduz”, “baxt” edi. Ana shu orzu, istak, jahd, azal goʻzallik-“ozodlik”, erkka olib borishi muqarrar, tarixiy zarurat”². Demak, mazkur misralarda yulduz timsoli baxtga qiyos qilingan:

Baxt singari olis yulduzlar goʻyo

Azal goʻzallikning shaʼmini yoqar...³

Yulduzlar-ijodkorning doimiy hamrohi, yaʼni doʻsti. Mazkur misralarda shoir yulduzlarni doʻsht-oshnasiga qiyos qilmoqda. Yulduzlarning son-sanoqsiz ekanligi tag mazmunida ijodkorning doʻstlariga ishora bor. Shu sababdan ham doʻstlari koʻpligidan ularni sanogʻini ham aytolmagan:

Boʻldim yulduzlar-la doʻst-oshna,

ammo sanoqlari sanalmagan...⁴

¹ Gʻaniyev I. Rauf Parfi Oʻzturk dunyosi.-T.: Muharrir nashriyoti, 2021.-B 10.

² Gʻaniyev I. Rauf Parfi Oʻzturk dunyosi.-T.: MUharrir nashriyoti, 2021.-B 32.

³ Parfi R.Saylanma.-T.: Akademyanashr, 2013.

⁴ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 302.





Yulduzlar haqida soʻz ketganda, joʻshqinlik va oʻzgacha kayfiyat jumalari ham birgalikda ishlatiladi. Jumladan, shoir bolalar haqida yozar ekan, ularning yulduz orasida oʻynashini tasvir etadi. Bolalar ham yulduzlar singari hayotimizning porloq va yorqin moʻjizalaridir:

Dunyoni topshiraylik bolalarga, hech boʻlmasa bir kunga,
Ol alvon bir shar kabi beraylik oʻynasinlar.

Oʻynasinlar qoʻshiqlar kuylab yulduzlar orasida...⁵

Yulduzlar-sokin tunning erka farzandlari. Ijodkor bu safar yulduzlarga nisbatan “chugʻurlasharkan” jumlasini beradi. Bu takrorlanmas jonlantirishning keltirilishi ijodkorning novatorligidan va badiiy mahorati kuchli ekanligidan dalolat beradi:

Ayniqsa tunda

Osmonda yulduzlar chugʻurlasharkan...⁶

Barchaning tom maʼnoda oʻz yulduzi boʻladi. Xususan, ijodkorimizning oʻz yulduzi boʻlib, unga murojaat qiladi: “Yur, yulduzim, yulduz sanaymiz...”. Yulduz timsolining oʻziga qarata yulduz sanash holatini shoir ijodida uchratimiz mumkin. Bu yerda yulduz obrazi shoirning holati va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holatini ham ifoda etmoqda:

Yulduzlar buncha ham behisob

Yur, yulduzim, yulduz sanaymiz...⁷

Ushbu misralar ham quyidagi misralarga hamohang tarzda yaratilgan:

Tushlarimda men yigʻlayman,

Sen kulib tur, Yulduzim...⁸

Rauf Parfining baʼzi sheʼrlarida yulduz timsoli salbiy maʼnoda ham qoʻllangan. Jumladan, mazkur uchlik band (“Uchlik band-orginal ijoddan koʻra, rus va Yevropa poeziyasidan oʻzbekcha qilingan tarjimalarda uchraydi. Orginal oʻzbek poeziyasida uchlik band koʻpincha “a-a-b” tartibida qofiyalanadi”⁹) da shoirning koʻzlariga bir yulduz yiqilib, uning kaftini teshib oʻtishi achinarli va qaygʻuli holat. Demak, oʻsha “bir yulduz” davrning tazyiqi yo qiyinchiligi sifatida talqin qilingan:

Koʻzimga bir yulduz yiqildi,

Eridi, aylandi bir toshga.

Teshib oʻtdi kaftimni...¹⁰

⁵ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 301.

⁶ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 299.

⁷ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 257.

⁸ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 151.

⁹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi.-T.: “Oʻqituvchi”, 1986.

¹⁰ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 244.



Rauf Parfining haqiqiy tabiat farzandi ekanligini uning lirikasini mutolaa qilishimiz orqali bilib olishimiz oson va lo'nda. Chunki peyzajik timsollar misralarda to'g'ridan-to'g'ri ijodkor va lirik qahramon bilan munosabatga kirishadi, so'zlashadi, yupatadi, muloqat qiladi va shu kabi jarayonlarni juda ko'plab uchratamiz. Misol uchun, mazkur misralarda ham xuddi shu holat tasvirlangan:

Yulduzlarning rahmi keladi,
Oy mo'ltirab qaraydi menga,
Yuzlarimni silaydi og'och...¹¹

Mazkur bandeda ham shoir sharobga sarmast paytida yulduzlarga murojaat qilgan. Aytib o'tganimizdaek, ushbu timsol bilan munosabatga kirishgan. Qolaversa, bu misralarda "yulduzlarga topshirish" iborasi ham she'rning badiiy ruhiyatini yanada oshirgan:

May ber menga, achhiq sharob ber,
Do'sti g'arib xushhol bu kecha,
Yulduzlarga seni topshirdim.

Quyidagi tahlilga tortilib kelayotgan she'rlarning ko'pchiligida yulduz timsoli ba'zan ijobiy ma'noda, ba'zan esa salbiy ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Bu, shubhasiz, ijodkorning hol-ahvolidan va zamonning nafasi ufurib turganidan darak beradi:

Hayhotdek tun ichra bir o'zim,
Yulduzlarning nurlari og'rur,
Ko'zlarimga kelib sanchilib...¹²

Ilhom G'aniyev ham "Hayhotdek tun ichra bir o'zim..." deya boshlanuvchi misralarni quyidagicha tahlilga olgan: "Hayhotdek tun", zulmat- bu shoir yashagan sho'ro davri (sobiq imperiya)-she'r yozilgan 1971-yilga e'tibor qilsangiz, masala yanada oydinlashadi, "yulduzlarning nurlari"-bu qadimdan mavjud Alloh haqiqatlari nurlari. Hur fikrli odamlarni erk va ozodlik, adolat haqidagi isyonkor "og'rur" fikrlari, shuning uchun ul nurlar "ko'zga sanchiladi". Aslida-ku nur yorug'lik, ro'shnolik, ezgulik, tiriklik, yo'l ko'rsatish"¹³.


"Avtobus derazasidan qarab ketsang..." jumalari bilan boshlanuvchi she'rda ham "zim-ziyo tun chog'i" iborasi ishlatiladi. Misralarda tushkunlik kayfiyati ustun: yulduzlarning so'nishi, shaharning shovqini zeriktirishi, suyuqli yorning sevmasligi shoirning hol-ahvoli achinarli ekanligidan dalolat bermoqda:

Xususan, yulduzlar so'nganda,

¹¹ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 241.

¹² Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 241.

¹³ G'aniyev I. Rauf Parfi O'zbek dunyosi. -T.: Muharrir nashryoti, 2019.





Xususan, zim-ziyo tun chog'i
Ayniqsa, shaharning shovqini seni zeriktirsa.
Ayniqsa, sevgiling sevmasa seni...¹⁴

Yulduzlar-sokin tunning erka farzandlari. Tun yulduzlarsiz bo'lsa, uning xosiyati yo'qoladi. Mazkur misralarda tunning tasviri yorqin va yaxshi tasvirlanganini "Osmonda yulduzlar chug'urlasharkan..." jumalari orqali bemalol bilib olishimiz mumkin:

Ayniqsa tunda
Osmonda yulduzlar chug'urlasharkan...¹⁵

Har bir insonning o'z yulduzi, o'z quyoshi bo'ladi. Rauf Parfi o'z yulduzi va quyoshini axtarmoqda. Va nihoyat yulduz va quyoshini topadi. Ya'ni, ular Ona xalqi! Xalqi uchun barcha narsaga tayyor ekanligini "Sen uchun sindirdim sinmas sozimni" jumalari orqali bilib olamiz. Demak, shoir uchun yulduz timsoli mazkur misralarda Vatan ma'nosida ifodalangan:

Axtardim muhitda xas kabi qalqib-
Men o'z Yulduzimni, o'z quyoshimni.
Yulduz sen, quyosh sen, Sen ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni...¹⁶

Rauf Parfi tabiat tasviri bilan bog'liq obrazlarni shoirona ruhda tasvirlashdan oldin mazkur obrazlarning xususiyatlari, hayot bilan aloqadorligini va asosiysi inson hayotidagi o'rnini ham o'rganib lirikasida ifoda etadi. Jumladan, tahlilga olingan yulduz obrazida ham xuddi shu holatlarni uchratamiz. Shoir lirikasida yulduz timsoli har safar o'zining yangi qirra ma'nolari namoyon bo'ladi. She'rxonning qalbida o'zgacha taassurot qoldiradi va peyzaj tasviri ularning tafakkurida shoirona ruhda aks etadi. Bu, albatta, Rauf Parfining badiiy mahorati buyuk ekanligidan xabar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Parfi R.Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
2. Parfi R. Saylanma.-T.: Akademnashr, 2013.
- 3.G'aniyev I. Rauf Parfi O'z turk dunyosi.-T.: Muharrir nashriyoti, 2019.
- 4.Sulton I. Adabiyot nazariyasi.-T.: "O'qituvchi", 1986.

¹⁴ Parfi R. Saylanma.-T.: Akademnashr, 2013.

¹⁵ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 154.

¹⁶ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 299.

